

O'ZBEK ADABIYOTI NASRIDA HAYOT VA XARAKTER MANTIQI

Rajabov Eliyor Xoliyorovich
ToshDO'TAU 2-kurs magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada yosh yozuvchi Javlon Jovliyevning "Onam va koinot" asaridagi hayot va xarakterlar to‘qnashuvi sintezlanadi. Badiiy asarda xarakterlar turlanishi, hayotiy voqealarda uning tuslanish shakllari ko‘rsatib o‘tiladi.

Kalit so‘zlar: Xarakter, obrazlar poetikasi, hayotiy voqeyilik

Ijod ilohiy tushuncha. Shunday ekan uni YARATGAN iznisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Alloh o'z yaratiqlarining barchasida biz bandalari uchun haqiqatlarni mujassam qilib qo'ydi. «Ijodkor odam ijod jarayonida haqiqatga tik boqa olishi kerak» - degan edi nemis olimi Miltag.¹ O'zbek olimlaridan biri, yozuvchi Ulug' bek Hamdam «Yoshlik» jurnalining bir sonida: « Ijodkor , avvalo, hayot mifikini o'qigan bo'lsin»- deganda, ayni haqiqatni aytgan edi. Yozuvchini o'z istaklaridanda voz kechishga majbur etuvchi bir omil borki, bu chinakam asar dunyoga kelishidan oldin puxta takomiliga ega bo'lishini nazarda tutuvchi «mantiq» omilidir.

Hayot mantiqi ikki turli bo'lib, biri asar voqeasida ro'y bersa, ikkinchisi obrazlar xarakterida mujassam bo'ladi. Har ikki mantiqdan ham ustun turadigan boshqa bir tirkak yo'q. Shuni inobatga olish kerakki, har ikkala mantiq: voqe va xarakter birvarakayiga, teng darajada ushlab turilmasa, asarni baholash, uni qabul qilish tarozisida tengsizlik, nomuvofiqlik yuzaga kelaveradi. Keyingi yillarda o'qirman nazariga tushgan Javlon Jovlievning

«Onam va Koinot» to'plamida keltirilgan hikoyalardagi aksar voqealar yozuvchi kuzatuvlarida ro'y bergan. Ko'zdan uzoqlashsada, ko'ngilga yaqin hikoyalar o'rinni olgan.

To'plamdan o'rinni olgan eng birinchi hikoya - «Stalinga maktublar», deya nomlanishi bilan beixtiyor kitobxon e'tiborini yana bir karra jamlamasdan qo'ymaydi. Oddiy bir o'qirman sifatida o'qib ketaverar ekansiz, «keyin nima bo'lar ekan», «oxiri qanday yakunlanar ekan», « yana kim Stalinga xat yozar ekan» degan fikrlar xayolingizdan o'tgan bo'lishi tabiiy. Menda ham shunaqa bo'ldi. Lekin men sizdanda farqliroq o'qishga mahkumman. O'qish jarayonida siz o'zingizga begona obrazlar xarakterida emas, siz mutlaq ko'rмаган, bosib o'tмаган, yozuvchi uchun kechmishu, siz uchun kuzatuv bo'lgan voqealar bilan hamohang asar to'lqinida suzib ketyapsiz. Bu oddiy hikoya. Ammo to'lqinlarga to'la hikoya.

Abdulla Qodiriy «Mehrobdan chayon» asarida «Bir onadan alvon xil bola tug'iladi» deganida hayoti haqiqat edi. Bir yonda Stalin dahosi tarovatidan mast bo'lgan

¹ Nemis olimi, yozuvchi Miltag, o'z xotira kitobida keltirib o'tadi.

o'zbek, birda «indamaslar olami»dan turib ham qasos olishga jahd qilib turgan o'ris(ukrain) ko'zga tashlanadi. Hikoyada aynan bitta voqeа o'z kulminasiyasiga ega emasdek ko'rindi. Yozuvchi turli kechinmalarnida bitta voqeilikka sig'dirmoqchi bo'ladi. Shunday qildi ham. Natijada voqeilik xarakterdan ustun kelganiga amin bo'lamiz. Shunday bo'lsada Javlon ularni bir tizginga «muktublar tizmasi»ni yarata oldi. Asarning qaerida bo'lmaning, qahramon sizni to'g'ri Stalinning muktublar to'la omboriga olib boraveradi. Kichkina bobodan muktublar...

Zoya obrazidan yo'llangan muktublar...Yozuvchi tilga olgan obraz, asar markazida prototip vazifasini o'tab turgan Stalin boshqaruvi, unga kelib turgan muktublar yaqin tarix sanalib, ayanchli tarzda xor bo'layotgan, ayni ma'nан xor, zorlikda kun kechirayotgan kishilar taqdiri inson xarakteri bilangina emas, voqealar tafsiloti bilan ochishga urinilgani ajablanarli. Aynan, «Qashqadaryo»ning qurishi haqiqat. Ammo yozuvchi nazdida bu ikki haqiqatni ochaveradi...«Ammo men katta xatoga yo'l qo'yganimni kuzda, "Qashqadaryo" bo'yida bildim. Daryomiz go'yo oqmay qolgandi. U yig'lar, o'zanida suv emas, go'yo ko'zyosh o'rtanardi». Necha yillar insonlar tirikchiligidagi ko'mak bo'lib kelgan daryoni o'sha «nahang baliq»lar quritgani haqiqat.

Agarda «Stalinga muktublar» o'sha davr muhitining o'zida yozilganda edi. Bu u davrdagi milliy ruh taraqqiyotining mevasi emas, balki reformaning chinakam mevasi o'laroq baholanar edi. Bu kabi hikoyalar jamiyat ehtiyojidan kelib chiqib tug'ilishi bilan milliy g'urur nuqtai nazaridan tug'ilganligi o'rtasida anchayin katta farq bor. Odatda bunday asarlarda bosh qahramonga ikkita asosiy vazifa yuklanadi. Mustaqil vazifa, hamda muallif qo'ygan vazifa. Qahramonlar asarda mustaqil vazifasidan chiqib ketishi amri mahol. Ayolning ariza yoza olishi qobiliyati shakllanganda edi, ayolning tog'asiga iltijo qilinishiga hojat qolmas edi. Ayolda davr jabri asorat bo'limganda edi, ertadan umidvorlik hissi paydo bo'lar, va «Ozodlik» qahramonlar mahkumiyatidan ozod bo'lar edi. Ana shu yerda yozuvchi qahramonlariga ahamiyatli vazifani yuklaydi. Ya'ni ayol o'z muammosini hal etishda farzandlarini o'rtaga qo'yadi, turmushidan nolishi, tog'aning unga, «umidsiz yurakka» umid baxsh etishi, ayolning erining isminida aytishga tili bormasligi... Yozuvchi Javlonning «Stalinga muktublar»idanda qaltisroq kechuvchi «Ozodlik» hikoyasida, qahramonlar chindan ham qaltis voqealar chorrahasida to'qnashishadi. Er vafot etdi. Ayolga umid baxsh etilmoqda. Tog'asi har doimgidek «xotirjam»:

Bizga atalgan kun ham bordir, axir...

- O'sha kun qachon keladi, tog'a?
- Keladi, albatta, keladi!!!²

Katta momaqaldoqlarga ham kichkinagina chaqmoq sababchi bo'lganidek, biz bee'tibor bo'lgan kichkina voqeа va hodisalarga yozuvchi e'tiborsizlik qilmaydi.

² Onam va koinot. Javlon Jovliyev

M. Sholoxov o'zining «Inson taqdiri» hikoyasini o'qiganingizda haqiqiy voqealarning haqiqiy sarguzashtiga duch kelasiz. U yerda qahramonlar ham haqiqiy! Prototip esa to'qimalardan ancha uzoqlashganiga guvoh bo'lamiz. Yoki Belinskiyning «Gogolga xati»da bot-bot takrorlagan ustuvor «dard»lar ham Gogolni o'ylantirib qo'yadi. Unga ma'nili va tushunganligi haqida javob xati yozishiga majbur bo'ladi. Negaki, rus adabiyoti axloqsizlikka, ateistlikka to'lib bo'lgan edi. Yozuvchining vazifasi buni aks ettirishning o'zinigina bajarishni burch deb bilishi emas, undan olib chiqish, qutqarish ham uning asosiy burchi ekanligini his etishi ham kerak edi.

Shunday ekan asardagi xarakter muallif vazifasi hamda asardagi qahramonning vazifasi singari ikkita vazifada ish ko'radi. Mana shu ikkita vazifa voqealar hajmidan, qahramonlar harakati hajmidan ortib ketmasligi lozim. Shermat aka, Tursun aka, Boltavoy buva kabi epizodik obrazlarga asar muallifi hech qanday vazifa qo'yмаган. Vaholanki jarayonda voqealar mantig'i ko'zgusida nimanidir tasdiqlashi lozimligi sababidan hikoyaga kiritilgani rost. Real hayotiy voqeа yaratilar ekan, yozuvchi real voqeaga real xarakter bera olishi ham lozim. Shu o'rinda Matyoqub Qo'shjonovning hayot mantiqi xususida bir fikrini keltirmoqchiman: «Yozuvchining istagidan ustun turadigan , uning yo'nalishini belgilab boradigan ma'lum kuchlar borki, san'atkor ular bilan hisoblashmasdan iloj yo'q». ³Albatta, ijodkor erkinlik istaydi. Shoir aytganidek:<«Baayni bandi bulbulni chamansiz sayratib bo'lmas»>. Mana shunday go'zal so'z chamanida sayr etmoqlikni kim ham istamaydi deysiz?! Buning uchun ijodkorga go'zallik kerak. Go'zallik esa, Gyote aytganidek tartib va yaxlitlikda! Aynan Matyoqub Qo'shjonov aytgan fikrning tasdig'i sifatida ijodda ham tartib lozimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Belinskiy V. Adabiy orzular.-T.: Adabiyot va san'at, 2000-yil.
2. Ulug'ov A. Adabiyotshunoslik asoslari-T.: O'zbekiston, 2022.
3. Javlon Jovliyev. Onam va koinot.-T.: 2022
4. Qur'onov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi-T.: 2020

³ Matyoqub Qo'shjonov. Tanlangan asarlar, Toshkent,2020